

O'zbekiston Respublikasi Aloqa, Axborotlashtirish va
Telekommunikatsiya Texnologiyalari Davlat Qo'mitasi

Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti

ATDT kafedrası

Kurs ishi

Mavzu: JAVA dasturlash tilida lug'at yaratish.

216-11 ITo' guruh talabasi

Bajardi: Ravshanov H

Tekshirdi: Rahmonova M

Toshkent 2014

Mundarija.

Kirish.

1.Asosiy qism.

1.1. Masalaning qo'yilishi.

1.2. Mavzu bo'yicha nazariy va amaliy malumotlar taxlili.

1.3. Dasturni tuzishda foydalanilgan mavzular.

1.4. Dasturdan natija olish, uni taxlildan o'tkazish va Tizimli dasturiy taminotdan foydalanish texnologiyasi.

Xulosa.

Ilova.

Kirish.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik odimlarini dadil qo'yayotgan hozirgi davrda, axborotlashtirilgan jamiyat qurish masalasi mamlakatimiz uchun naqadar katta ahamiyat kasb etayotgani hech kimga sir emas. Respublikamizda jamiyatimizni axborotlashtirish maqsadida bir qancha qaror va qonunlar qabul qilindi. Masalan, 1993- yil 7- may va 2003- yil 11- dekabrda «Axborotlashtirish to'g'risida»gi qonun, 2002- yil 30- mayda «Kompyuterlashtirish va informatsion-kommunikatsion texnologiyalarni qo'llashni yanada rivojlantirish» haqidagi qaror, 2003- yil 11- dekabrda «Elektron raqamli imzo haqida»gi qonun va 2004- yil 29- aprelda «Elektron hujjat yuritish» haqidagi qonun fikrimizning dalilidir. Informatika vositalari jamiyatimizning barcha jabhalariga tobora kirib borayotgani, axborotni tez va sifatli qayta ishlash malakasi o'sib kelayotgan har bir yoshning turmush talabiga aylanishini ko'rsatib bermoqda. Axborotning qimmatbaho tovarga aylanib borayotgani, informatika fanining nufuzi va ahamiyati o'sib borayotganidan dalolatdir. Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlik kuchaytirildi. Bugungi dunyoda, aniqrog'i, insoniyat hayoti faoliyati davomida axborot texnologiyalari sohasi keng tarqalganligi bilan bir qatorda, tez sur'atlarda rivojlanmoqda. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatni axborot texnologiyalaridan jinoiy maqsadlarda foydalanishdan samarali himoya qilish muammosini keltirib chiqarmoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jamiyatimizda tutgan o'rni tobora ortib, hayotimizning barcha jabhalariga keng kirib borayotir.

Shu bois axborotlashtirish sohasiga oid qabul qilingan qator farmonlar, qonunlar, hukumat qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlarning ijrosi bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari masalalari qo'mitasi hamda O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi hamkorligida "Jamiyatni axborotlashtirish muammolari va shartlari" mavzuida o'tkazilgan seminarda shu haqda so'z yuritildi.

Unda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi, tegishli vazirlik va idoralar vakillari, olimlar va mutaxassislar ishtirok etdi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari masalalari qo'mitasi raisi X.Do'stmuhamedov boshqargan anjumanda jamiyatni axborotlashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning ahvoli, axborotlashtirish sohasida qabul qilingan qonunlarning amalda joriy etilishi, ushbu yo'nalishdagi jahon tajribasi va istiqboliga doir masalalar muhokama qilindi.

Tadbirda "Axborotlashtirish masalalarining mamlakatdagi ahvoli: yutuqlar, muammolar, rejalar", "Jamiyatni axborotlashtirishning huquqiy asoslari", "Respublikamizda telekommunikatsiya tizimini rivojlantirish muammolari", "Ta'lim tizimini axborotlashtirishning dolzarb masalalari" kabi mavzularda ma'ruzalar tinglandi.

Mamlakatimizda Prezident Islom Karimov rahnamoligida ijtimoiy-iqtisodiy sohada, jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tarmog'ida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Axborot makonini shakllantirish masalalari davlatimiz rahbarining 2002 yil 30 mayda qabul qilingan "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida"gi farmonida o'z aksini topgan va shu asosda 2002-2010 yillarda Kompyuterlashtirish va AKT rivojlantirish Dasturi ishlab chiqilib izchillik bilan amalga oshirilmoqda

Shu bois 2007 yil 27 sentabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan "Axborotlashtirish va ma'lumotlar uzatish sohasida qonunga xilof harakatlar sodir etganlik uchun javobgarlik kuchaytirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi hamda 2007 yil 30 noyabrda Oliy Majlis Senatining o'n ikkinchi yalpi majlisida ma'qullandi va 2007 yil 26 dekabrda rasmiy e'lon qilinib, shu kundan e'tiboran kuchga kirdi.

Avvalambor, mazkur qonunning qabul qilinishi sabablari, maqsadi, ahamiyati va zaruriyligi haqida to'xtalib o'tsak. Mustaqilligimizning birinchi kunlaridanoq

mamlakatimizda axborot texnologiyalarini rivojlantirish va uni jamiyat hayotining barcha jabhalariga joriy etish masalasiga katta e'tibor berib kelinayapti. Natijada axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyalardan kundalik hayotda va barcha sohalarida keng foydalanilmoqda.

Qonunning 2-moddasi bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat- protsessual kodeksining "Dastlabki tergovning majburiyligi" nomli 345-moddasining beshinchi qismidagi "168-174" raqamlari "168-173" va "266-278" raqamlari "266-278 6 " raqamlari bilan almashtirildi. Natijada Jinoyat-protsessual kodeksi 345-moddasining beshinchi qismidan Jinoyat kodeksining 174-moddasi chiqarildi hamda O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga yangi kiritilgan 278 1 -278 6 - moddalarida belgilangan jinoyatlar bo'yicha dastlabki tergov ichki ishlar organlarining tergovchilari tomonidan olib borilishi belgilandi.

Qonunning 3-moddasi bilan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining "Transportdagi, yo'l xo'jaligi va aloqa sohalaridagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik" nomli XI bobiga "Kompyuter tizimidan foydalanish qoidalarini buzish" nomli yangi 1551 – modda kiritildi. Unga ko'ra, kompyuter tizimidan foydalanishga ruxsati bo'lgan shaxsning ushbu tizimdan foydalanishning belgilangan qoidalarini buzishi kompyuter axborotining yo'q qilib yuborilishiga, to'sib qo'yilishiga, modifikatsiyalashtirilishiga, kompyuter uskunasi ishlashining buzilishiga sabab bo'lsa, ma'muriy javobgarlikka tortilishi belgilandi.

Toshkentda 16 oktabr kuni "Aloqa infratuzilmasi va xizmatlari hamda elektron hujjat aylanishini rivojlantirishning dolzarb muammolari" mavzuida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman bo'lib o'tadi. U O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi va Rossiya Federatsiyasining Axborot texnologiyalari bo'yicha federal agentligi tomonidan tashkil etilmoqda.

Mamlakatimizda elektron hujjat aylanishi bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. O'zA muxbiri Ilmiy-texnik va marketing tadqiqotlari markazi direktorining birinchi o'rinbosari, texnika fanlari nomzodi Rixsi Isayevdan bu borada amalga oshirilayotgan ishlar xususida so'zlab berishni iltimos qildi.

- Avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, – dedi R.Isayev, – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2002 yil 30 mayda qabul qilingan "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida"gi farmonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi strategik ustuvor vazifalarni amalga oshirishga doir amaliy chora-tadbirlar belgilangan.

Mamlakatimizda 2003-2004- yillarda davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan qator qonun hujjatlari qabul qilindi. Jumladan, ana shunday hujjatlardan biri "Elektron raqamli

imzo to'g'risida"gi qonunga muvofiq elektron raqamli imzo shaxsiy imzoga tenglashtirildi va u bilan bir xil huquqiy kuchga ega bo'ldi. "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi qonun esa elektron hujjatning huquqiy kuchga ega ekanini belgilaydi. Elektron hujjatning majburiy rekvizitlaridan biri elektron raqamli imzo hisoblanadi. "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonun elektron tijoratni huquqiy tartibga solish jihatlarini belgilaydi. Bunga global kompyuter tarmoqlarining tashkil etilishi natijasida dunyoda axborot uzatish va tarqatish sohasida ro'y bergan keskin o'zgarishlar sabab bo'ldi. Xalqaro tahlilchilarning ma'lumotlariga ko'ra, jami korporativ axborotning qariyb 30 foizi ma'lumotlar bazasida yo'nalishlarga bo'lingan va bo'linmagan holda elektron shaklda almashilmoqda hamda saqlanmoqda. Elektron matnli axborot hajmi har uch yilda ikki baravarga ko'payadi. Elektron axborot hajmining ko'payishiga qarab, qog'ozdagi hujjatlar soni va hujjat aylanishi hajmi ham ortadi. Dunyoda har yili 6 milliardga yaqin yangi hujjat paydo bo'lmoqda. Shubhasiz, bunday sharoitda elektron hujjat aylanishi yanada tez rivojlanadi. Bu esa axborot almashish tezligini ancha oshirib, uni saqlash joylariga bo'lgan ehtiyojni jiddiy ravishda kamaytirish imkonini beradi.

Elektron hujjat aylanishini rivojlantirish zarurati uchta omilga bog'liq. Bu rasmiy hujjatlar bilan ishlashda texnologik o'zgarishlarni amalga oshirish. Buning natijasida qog'ozda ish yuritish o'rnini elektron hujjat aylanishi egallaydi. Kompaniyalar katta hajmdagi axborot oqimini to'plash va qayta ishlash, biznes-jarayonlar, moliyaviy, moddiy, nomoddiy, mehnat hamda boshqa resurslarni hisobga olish va nazorat qilishni

ta'minlash jarayonlarini avtomatlashtirishga ehtiyoj sezmoqda. Jadal rivojlanib borayotgan Elektron tijoratda tomonlar o'rtasidagi bitimlar Internet tarmog'idan foydalangan holda elektron shaklda amalga oshiriladi.

Dunyoda dastlabki elektron hujjat aylanishi tizimi bank sohasida paydo bo'ldi. Shunday tizimlardan biri – SWIFT o'tgan asrning 70-yillaridan buyon ishlatilmoqda. Keyinchalik ichki va banklararo axborot tizimlari ham rivojlana boshladi. Tizimlar takomillashib, rivojlandi va biznes-jarayonlar, axborot, tasvirlar va katta hajmdagi ishlarni boshqarishga yo'naltirildi.

Hozir dunyoda elektron hujjat aylanishi tizimlarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan o'n minglab kompaniyalar mavjud. IBM, Microsoft, Otacle, Documentum kabi kompaniyalar ushbu sohada yetakchilik qilmoqda. Shuningdek, elektron hujjat aylanishi tizimlarini rivojlantirishda ayrim kompaniyalar o'z sa'y-harakatlarini birlashtirayotgani ham kuzatilmoqda.

Bugungi kunda elektron hujjat aylanishi axborot taqdim etishning asosiy usuliga aylandi. Turli hujjatlar bilan faol ishlashda ertami, kechmi katta hajmdagi axborotni tizimlashtirish, qayta ishlash hamda xavfsiz saqlash muammosi yuzaga keladi. Elektron hujjat aylanishi tizimidan foydalanish orqali qog'oz hujjatlar bilan ishlash jarayonida yuzaga keladigan ko'plab tashkiliy va texnologik cheklovlarni bartaraf etish mumkin. Bu esa hujjatlar bilan ishlash samaradorligi, boshqarish sifatini oshirish, axborotni ishonchli himoya qilishni ta'minlash imkonini beradi. Elektron hujjat aylanishi tizimlari nafaqat bitta korxona miqyosida, balki mamlakat iqtisodiyotining barcha jabhalarida qo'llanishi lozim. Masalan, soliq sohasida ushbu tizim yordamida soliq to'lovchilarning soliq majburiyatlarini bajarishi bo'yicha hisobot axborotini to'plash, ularni hisobga olish, axborot-tahliliy soliq tekshiruvlarini olish hamda tahlil qilish mumkin. Tashqi iqtisodiy faoliyat va bojxona sohasida tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarini qayd etish, bojxona to'lovlari, import, eksport va tranzit yuk tashishlar to'g'risidagi hisobotlarni olish, iqtisodiyot va sanoat sohasida makroiqtisodiy ma'lumotlarni to'plash, sanoatning rivojlanishiga oid asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va hokazolarga ega bo'lishga yordam beradi.

Bu borada biznes-sheriklar va mijozlar bilan o‘zaro munosabatni tashkil etishga mo‘ljallangan elektron hujjat aylanishi tizimi jadal rivojlanmoqda. Ushbu tizimlarda bitimlarni tasdiqlash uchun elektron hujjat almashinuvi amalga oshiriladi. Bu tarzda hujjat almashinuvi elektron hujjat aylanishi tizimini elektron pochta bilan integratsiyalashtirish yoki portallardan foydalanish hisobidan ta‘minlanadi. Bunday o‘zaro munosabatlar elektron hukumat, elektron tijoratni rivojlantirish uchun zarur. Ko‘pgina davlatlarda elektron hamjihatlikning bunday tizimlari hukumat muassasalari tomonidan on-layn tartibida o‘zlarining rasmiyatchilik masalalarini hal etish, shuningdek, Internet tarmog‘i orqali haydovchilik guvohnomasini yoki boshqa ruxsat qog‘ozlarini olish uchun qo‘llanilmoqda. Ayniqsa, elektron hujjat aylanishi xizmatiga talab katta va u elektron tijorat tizimlarida samarali qo‘llanilmoqda. Elektron tijoratni amalga oshirish uchun banklar ichida va banklararo elektron to‘lovlar tizimlari hamda chakana elektron to‘lovlar tizimlarini rivojlantirish zarur. So‘nggi yillarda bank kreditlari va debit kartlari,

shuningdek, elektron hamyonlardan foydalangan holda moliyaviy operatsiyalarni bajarishning muqobil uslubini taqdim etadigan elektron to‘lov tizimlari ommalashdi. Uzatiladigan **axborot xavfsizligini** ta‘minlash va elektron hujjat dalil bo‘la oladigan kuchga ega bo‘lishi uchun unga maqom berish bilan bog‘liq qator masalalarni hal etish zarurati elektron hujjat aylanishini rivojlantirish yo‘lidagi asosiy to‘siq hisoblanadi. Bu masalalarni elektron hujjat aylanishini har bir suveren davlat ichida hamda xalqaro maydonda huquqiy tartibga solish orqali hal etish mumkin. Yuqorida qayd etilgan maxsus qonun hujjatlarining qabul qilinishi O‘zbekistonda elektron hujjatni samarali qo‘llash uchun huquqiy asos yaratdi. Bu borada dastlabki tajribaga ham ega bo‘ldik. Sirdaryo viloyatida elektron hukumatni joriy etish bo‘yicha tajriba loyihasi amalga oshirilmoqda. Unga ko‘ra, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining oshkoraligini ta‘minlaydigan yaxlit tizimni yaratish, “Sirdaryo viloyati portali”ni tashkil etish, elektron hujjat aylanishini joriy etish hamda mahalliy hokimiyat tuzilmalarining fuqarolar, biznes-tuzilmalar bilan yanada yaqin hamkorligiga yordam beradigan boshqa choralar ko‘zda tutilgan. Elektron hujjat aylanishini korxonada, soha miqyosida, respublika bo‘yicha va uning tashqarisida joriy etish katta samara beradi.

Mamlakatimizda zamonaviy elektron axborot almashishga o'tish uchun elektron hujjat aylanishi bo'yicha xizmatlar ko'rsatish infratuzilmasi yaratildi – telekommunikatsiyalar tarmog'ining 80 foizi raqamlashtirildi va bu MDH mamlakatlari bo'yicha katta ko'rsatkich, hukumatimizning asosiy qonun hujjatlari va qarorlari qabul qilindi, elektron raqamli imzoni qo'llash infratuzilmasi shakllantirilmoqda va hokazo. Yana shuni ta'kidlash joizki, bu borada qator muammolar ham bor. Ularni hal etmasdan turib, mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha jabhalarida elektron hujjat aylanishini jadal rivojlantirib bo'lmaydi. Buning uchun birinchi navbatda, iqtisodiyotning har bir tarmog'ida va mamlakatimizda axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, korporativ axborot tarmoqlarini tashkil etish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish zarur. Shuningdek, tarmoqlar va respublika hududlari o'rtasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish bo'yicha raqamli tafovutni kamaytirish uchun sharoit yaratish, elektron hujjat aylanishi tizimlari va xizmatlarini davlat boshqaruvida qo'llashda ularni standartlashtirish masalalarini hal etish, elektron raqamli imzoning ochiq kalitlari infratuzilmasini shakllantirish uchun

Elektron raqamli imzolarni ro'yxatga olish markazini rivojlantirish hamda fuqarolik-huquqiy munosabatlari sohasida kriptografiya vositalaridan foydalanishni tartibga solish lozim. Poytaxtimizda bo'lib o'tadigan **“Aloqa infratuzilmasi va xizmatlari hamda elektron hujjat aylanishini rivojlantirishning dolzarb muammolari”** mavzuidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman elektron hujjat aylanishi xizmatlaridan barcha joylardagi foydalanuvchilarni o'qitish, aholining elektron raqamli imzoga bo'lgan ishonchini oshirish, elektron hujjat aylanishi tizimlarida axborot xavfsizligini mustahkamlash kabi muhim masalalarni hal etish yo'llarini muhokama etish imkonini beradi.

Mavzu: JAVA dasturlash tilida lug'at yaratish.

Asosiy qism.

1.1 Masalaning qo'yilishi.

Biz ushbu kurs ishini bajarish mobaynida "Identifikator jadvali uchun hesh funksiyani yaratish" mavzusi bo'yicha ish olib boramiz. Bunda biz nazariy qism va dastur qismini yaratamiz. Identifikator uchun oddiy jadval yaratish usuli bilan ham tanishamiz. Hesh funksiya haqida ham tanishamiz.

1.2 Mavzu bo'yicha nazariy va amaliy malumotlar taxlili.

JAVA ning C & C++ dan ustunligi

- WORA - Write Once, Run Anywhere (portable).
- Havfsizlik (ishonch yuq kodni havfsiz ishga tushirish).
- Hotirani havfsiz boshqarish (avtomat ravishda musorlarni yig'adi)
- Tarmoqga dasturlash
- Ko'p oqimli (Multi-thread) dasturlash
- Dinamik & kengaytirish
 - Class lar alohida fayllarda saqlanadi
 - Kerak bo'lsa ishlatiladi
 - Dinamik ravishda imkoniyatini oshirish xam mumkin kerak bo'lsa.

Kim Java'ni ishlab chiqaradi?

- Java tili Sun Microsystems tomonidan 1991 yil bitovoy ustroystvaga dasturlar ishlab chiqishdan boshlangan.

Java'ning asoschisi

- Java dasturlash tili James Gosling tomonidan yaratilgan.
- Java'ning birinchi nomi "Oak" bo'lgan.
- Birinchi ofitsialniy versiya - Java 1.0, 1995-96 yil taqdim qilingan.

Java'da dasturlash uchun dasturlari

1. JDK+Notepad++
2. JDK+Eclipse
3. Netbins

4. IntelliJ

5.

1.3. Dasturni tuzishda foydalanilgan mavzular.


**abstract assert boolean break byte case catch char class
const continue default do double else enum extends final
finally float for goto if implements import instanceof
int interface long native new package private protected public
return short static strictfp super switch synchronized this throw
throws transient try void volatile while**

JAVA: SWING

Java/SWING nima – JAVA uchun GUI Framework

- JAVA dasturlarini “look and feel” holatiga keltirish
- Java Foundation Classes (Sun Microsystems) bir qismi
- IFC (Netscape) va JFC (Sun Microsystems) qo’shilgani
- Java Standard Edition 1.2 versiyasidan boshlab paket shaklida qo’shilgan
- GUI controllar java dastur orqali generatsiya qilinadi
- Ko’rinishi va funkcionallkin jihatidan Windows, Mac va Linux OS’laridaka

Java Swing class iearxiyasi



javax.accessibility	javax.swing.plaf	javax.swing.text
javax.swing	javax.swing.plaf.basic	javax.swing.text.html
javax.swing.border	javax.swing.plaf.metal	javax.swing.text.html.parser
javax.swing.colorchooser	javax.swing.plaf.multi	javax.swing.text.rtf
javax.swing.event	javax.swing.plaf.synth	javax.swing.tree
javax.swing.filechooser	javax.swing.table	javax.swing.undo

SWING Layots

AWT va Swing klaslarining layout manager'lari:

[BorderLayout](#)

[BoxLayout](#)

[CardLayout](#)

[FlowLayout](#)

[GridBagLayout](#)


[GridLayout](#)

[GroupLayout](#)

[SpringLayout](#)

Java/SWING BorderLayout

BorderLayout



Har bir content pane boshlang'ichda BorderLayout inisalizatsiya qilinadi. BorderLayout componentlarni 5 ta maydonga qo'yadi: top, bottom, left, right, va center.

1.4. Dasturdan natija olish, uni taxlildan o'tkazish va Tizimli dasturiy taminotdan foydalanish texnologiyasi.

```
import javax.swing.*;
import java.awt.*;
import java.awt.event.ActionEvent;
import java.awt.event.ActionListener;
import java.io.*;
```

```

/**
 * Created with IntelliJ IDEA.
 * User: HUSAN
 * Date: 20.01.14
 * Time: 0:28
 * To change this template use File | Settings | File Templates.
 */
public class Dic extends JFrame {
    private void init() {
        setDefaultCloseOperation(JFrame.EXIT_ON_CLOSE);
        setSize(600, 500);
        setLayout(new BorderLayout());
        setLocationRelativeTo(null);
        setResizable(false);
    }
    private JPanel topPanel;    //shimol
    private JPanel eastPanel;   //sharq
    private JPanel westPanel;   //g'arb
    private JPanel southPanel;  //janub

    private JLabel label = new JLabel("So'zni kiriting");
    private JTextField textField1 = new JTextField(10);
    private JTextArea natija1 = new JTextArea("Lug'at" ,15, 20);
    private JTextArea natija2 = new JTextArea("Lug'at" ,15, 20);

    public Dic(String title) {
        super(title);
        init();
        fillForm();
        setVisible(true);
    }

    private void fillForm() {

        final JButton Ok = new JButton("OK");
        Ok.addActionListener(new ActionListener() {
            @Override
            public void actionPerformed(ActionEvent e) {
                String suz = textField1.getText();
                String bh = suz.substring(0, 1);
                File resurs = new File("Eng\\"+bh+".B&M");
                File res = new File("Uzb\\"+bh+".txt");

                if (!resurs.exists()) {
                    natija1.setText("Iltimos, faqat lotincha harflardan foydalaning");
                }
            }
        });
    }
}

```

```

        System.exit(0);
    }
    if (!res.exists()) {
        natija2.setText("Iltimos, faqat lotincha harflardan foydalaning");
        System.exit(0);
    }
    try {
        BufferedReader reader1 = new BufferedReader(new FileReader(resurs));
        int i = 0;
        StringBuffer buffer1 = new StringBuffer();
        StringBuffer buffer2 = new StringBuffer();
        while(reader1.ready()) {
            String line = reader1.readLine();
            if (line.startsWith(suz)) {
                buffer1.append(line).append("\n");
                i++;
            }
            if (i==30) break;
        }
        natija1.setText(buffer1.toString());
        BufferedReader reader2 = new BufferedReader(new FileReader(res));
        int j = 0;
        while(reader2.ready()) {
            String line = reader2.readLine();
            if (line.startsWith(suz)) {
                buffer2.append(line).append("\n");
                j++;
            }
            if (j==30) break;
        }
        natija2.setText(buffer2.toString());
    } catch (FileNotFoundException e2) {
        e2.printStackTrace(); //To change body of catch statement use File | Settings | File
Templates.
    } catch (IOException e2) {
        e2.printStackTrace(); //To change body of catch statement use File | Settings | File
Templates.
    }
    }
    });

```

```

JLabel label1 = new JLabel("English - Uzbek");
JLabel label2 = new JLabel("Uzbek - English");

```

```

natija1.setLineWrap(true); //faqat pastga tushadi

```

```

        JScrollPane scrollPane1 = new JScrollPane(natija1);

scrollPane1.setHorizontalScrollBarPolicy(ScrollPaneConstants.HORIZONTAL_SCROLLBAR_AL
WAYS);

scrollPane1.setVerticalScrollBarPolicy(ScrollPaneConstants.VERTICAL_SCROLLBAR_ALWAYS
);
        add(scrollPane1);

        natija2.setLineWrap(true);
        JScrollPane scrollPane2 = new JScrollPane(natija2);

scrollPane2.setHorizontalScrollBarPolicy(ScrollPaneConstants.HORIZONTAL_SCROLLBAR_AL
WAYS);

scrollPane2.setVerticalScrollBarPolicy(ScrollPaneConstants.VERTICAL_SCROLLBAR_ALWAYS
);
        add(scrollPane2);

        topPanel = new JPanel(new FlowLayout(FlowLayout.CENTER, 20, 20));
        topPanel.add(label);
        topPanel.add(textField1);
        topPanel.add(Ok);
        add(topPanel, BorderLayout.NORTH);

        westPanel = new JPanel(new FlowLayout(FlowLayout.CENTER, 0, 20));
        westPanel.add(scrollPane1);
        add(westPanel, BorderLayout.WEST);

        eastPanel = new JPanel(new FlowLayout(FlowLayout.CENTER, 0, 20));
        eastPanel.add(scrollPane2);
        add(eastPanel, BorderLayout.EAST);

        southPanel = new JPanel(new FlowLayout(FlowLayout.CENTER, 0, 20));
        southPanel.add(label1);
        southPanel.add(label2);
        add(southPanel, BorderLayout.SOUTH);



    }
}
Dasturning main qismi

import javax.swing.*;
import java.awt.event.ActionEvent;
import java.awt.event.ActionListener;

```

```
/**
 * Created with IntelliJ IDEA.
 * User: HUSAN
 * Date: 20.01.14
 * Time: 0:29
 * To change this template use File | Settings | File Templates.
 */
public class Main {
    public static void main(String[] args) throws ClassNotFoundException,
    UnsupportedLookAndFeelException, InstantiationException, IllegalAccessException {

        UIManager.setLookAndFeel("javax.swing.plaf.nimbus.NimbusLookAndFeel");
        Dic dic = new Dic("Lug'at");
        JMenuBar menuBar = new JMenuBar();
        JMenu fayl = new JMenu("Fayl");
        JMenuItem chiqish = new JMenuItem("Chiqish");
        chiqish.addActionListener(new ActionListener() {
            @Override
            public void actionPerformed(ActionEvent e) {
                System.exit(0);
            }
        });
        JCheckBoxMenuItem item = new JCheckBoxMenuItem("Power Save Mode");
        fayl.add(item);
        fayl.addSeparator();
        fayl.add(chiqish);
        JMenu tahrir = new JMenu("Tahrirlash");
        JMenu servis = new JMenu("Servis");
        JMenu oyna = new JMenu("Oynalar");
        JMenu yordam = new JMenu("Yordam");
        menuBar.add(fayl);
        menuBar.add(tahrir);
        menuBar.add(servis);
        menuBar.add(oyna);
        menuBar.add(yordam);
        dic.setJMenuBar(menuBar);
    }
}
```



XULOSA

Kurs ishini bajarish davomida quyidagi xulosalarga ega bo'ldim: bularga qism dasturlarni yaratish, ob'ekt xususiyatlari bilan ishlash, sinflarni shakllantirish kabi tushunchalarni o'zlashtirish .

Ushbu kurs ishida yuqorida ta'kidlab o'tilgan ma'lumotlarni o'zlashtirish bilan bir qatorda JAWA va shu kabi dasturlash tillarida sinflar va ob'ektlar, sinflar orasidagi munosabatlar, ob'ektlarga qiymatlarni o'zlashtirish va ulardan foydalanish kabi tushunchalar o'zlashtirildi.

Lug'at yaratishda Jawa muhitidan unumli foydalanildi. Natijalar esa Console rejimida chiqarildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Майкл Томас, Пратик Пател, Алан Хадсон, Доналд Болл(мл.) **Секреты программирования для Internet на Java.**- Ventana Press, Ventana Communications Group, U.S.A.,1996, Издательство "Питер Пресс", 1997
2. Аарон И.Волш **Основы программирования на Java для World Wide Web.**- IDG Books Worldwide,Inc.,1996, Издательство "Диалектика",1996
3. Кен Арнольд, Джеймс Гослинг **Язык программирования Java.**- Addison-Wesley Longman,U.S.A.,1996, Издательство "Питер-Пресс", 1997
4. Нейл Бартлетт, Алекс Лесли, Стив Симкин **Программирование на Java. Путеводитель.**- The Coriolis Group,Inc.,1996, Издательство НИПФ "ДиаСофт Лтд.",1996
5. Крис Джамса **Библиотека программиста Java.**- Jamsa Press, 1996, ООО "Попурри", 1996